НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

“DEVONI HABIB” QO‘LYOZMA NUSXALARINING TAVSIFI

Nosirova Iroda Jamoliddin qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
Nosirovairoda33@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Habib ijodiy merosining muhim yozma manbalaridan biri bo‘lgan “Devoni Habib”ning qo‘lyozma nusxalari qiyosiy-matniy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan 946, 7086 va 1142 raqamli qo‘lyozma nusxalarning kitobat xususiyatlari, tarkibi, hajmi, janriy tuzilishi va matniy farqlari tahlil qilingan. Qo‘lyozmalardagi g‘azal, muxammas, musaddas, qasida va Navro‘znoma kabi janrlarning miqdoriy va tarkibiy ko‘rsatkichlari qiyoslangan. Shuningdek, nusxalar o‘rtasida uchraydigan imloviy, leksik va kompozitsion tafovutlar aniq misollar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida 946 raqamli qo‘lyozmaning matn to‘liqligi, tartibliligi, poygirlarning mavjudligi va boshqa nusxalarga nisbatan kamroq nuqsonlarga egaligi aniqlanib, uni “Devoni Habib”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda tayanch nusxa sifatida olish mumkinligi asoslangan. Shuningdek, 7086 va 1142 raqamli qo‘lyozmalar hamda 582 raqamli bayoz Habib ijodiy merosining matniy tarkibini to‘ldiruvchi muhim manbalar sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: Habib, “Devoni Habib”, qo‘lyozma, qo‘lyozma nusxa, matnshunoslik, tekstologiya, manbashunoslik, qiyosiy tahlil, matniy tafovut, tayanch nusxa, ilmiy-tanqidiy matn, g‘azal, muxammas, musaddas, qasida, bayoz.

Аннотация

В статье проводится сравнительно-текстологическое исследование рукописных списков «Девони Хабиб» — одного из важных письменных

источников творческого наследия Хабиба. Анализируются особенности оформления, состав, объём, жанровая структура и текстовые различия рукописей № 946, 7086 и 1142, хранящихся в фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан. На конкретных примерах сопоставляются орфографические, лексические и композиционные расхождения, выявленные в рукописях. В результате исследования установлено, что рукопись № 946 отличается полнотой текста, последовательностью расположения произведений и сравнительно небольшим количеством дефектов. На этом основании обосновывается возможность использования данной рукописи в качестве основной, или опорной, при подготовке научно-критического текста «Девони Хабиб». Рукописи № 7086 и 1142, а также байаз № 582 рассматриваются как важные вспомогательные источники для выявления текстовых вариантов и дополнения литературного наследия Хабиба.

Ключевые слова: Хабиб, «Девони Хабиб», рукопись, текстология, текстологическое исследование, сравнительный анализ, опорная рукопись, текстовый вариант, газель, мухаммас, мусаддас, касыда

Abstract

This article presents a comparative and textual study of the manuscript copies of “Devoni Habib”, one of the important written sources of Habib’s literary heritage. The study examines the codicological features, composition, volume, genre structure, and textual variations of manuscript copies No. 946, 7086, and 1142 preserved in the collection of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Orthographic, lexical, and compositional differences identified in the manuscripts are analyzed through specific textual examples. The study demonstrates that manuscript No. 946 is

distinguished by its textual completeness, systematic arrangement of poetic works, and relatively fewer textual defects. On this basis, the manuscript is proposed as the principal or base copy for preparing a scholarly critical edition of “Devoni Habib”. Manuscripts No. 7086 and 1142, as well as Bayaz No. 582, are considered important auxiliary sources for identifying textual variants and supplementing the known corpus of Habib’s literary heritage.

Keywords: Habib, “Devoni Habib”, manuscript, textual criticism, textual studies, comparative analysis, base manuscript, textual variant, ghazal, mukhammas, musaddas, qasida.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganishda yozma manbalarni aniqlash, tavsiflash va qiyosiy-matniy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, shoirlarning devonlari turli davrlarda bir necha kotiblar tomonidan ko‘chirilgani sababli ularning qo‘lyozma nusxalari o‘rtasida tarkibiy, imloviy, leksik va kompozitsion farqlar yuzaga kelgan. Shu bois muallif matniga imkon qadar yaqin ilmiy matnni tiklash uchun mavjud nusxalarni o‘zaro qiyoslash, ularning geneologik munosabatini aniqlash hamda har bir nusxaning tekstologik qiymatini belgilash zarur.

Habib ijodiy merosining muhim qismini tashkil etuvchi “Devoni Habib” ham bir necha qo‘lyozma nusxalarda saqlanib qolgan. Mazkur nusxalarning tarkibi, hajmi, janrlar miqdori va matniy xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan Habib devoni qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganish shoir ijodining matniy tarkibini aniqlash, mavjud variantlarni belgilash va ilmiy-tanqidiy matn yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Matnshunoslikda qo‘lyozma manbalarni tadqiq etishning asosiy yo‘nalishlari qatoriga qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, nusxalarni xillash, matniy tafovutlarni aniqlash, ko‘chirishdagi xatoliklarni tahlil qilish, qo‘shimcha va tushirib qoldirilgan o‘rinlarni aniqlash, matnlar o‘rtasidagi aloqadorlikni belgilash hamda asosiy matnni

tiklash kiradi. Mazkur metodologik tamoyillar “Devoni Habib” qo‘lyozmalarini tadqiq etishda ham asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida “Devoni Habib”ning 946, 7086 va 1142 raqamli qo‘lyozma nusxalari mavjud.

946 raqamli qo‘lyozma sharqona uslubdagi qattiq karton muqovaga ega bo‘lib, matn fabrika qog‘oziga qora siyoh bilan bitilgan. Sarlavhalar qizil siyohda yozilgan. Asar nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, har sahifada ikki ustun va 21 satr mavjud. Qo‘lyozmada poygirlar bor, har bir she’r xattot tomonidan raqamlangan. Asar 59 varaqdan iborat bo‘lib, qog‘oz hajmi 26×18 sm.

Mazkur qo‘lyozmada Habibning turli janrlardagi she’rlari jamlangan. Devon basmala bilan boshlanadi va undan so‘ng “ديوان حبيب” — “Devoni Habib” nomi keltiriladi. Birinchi g‘azal:

زهي قدرت نماليغ قيلدينک عالم غه عدد پيدا

ني ذاتيکغه مکان زاهرني اوصافينکغه حد پيدا

misralari bilan boshlanadi.

G‘azalning o‘qilishi:

Zehi qudratnamolig‘ qilding olamg‘a adad paydo,

Ne zotingg‘a makon zohirni avsofingg‘a had paydo.

Qo‘lyozmaning oxirgi qismida:

هر کيم استعدا ديغه لايق سوز اتور اى حبيب هيچ کشى مطلومى ايرماستور شبستان بهار

baytlari keltirilgan.

Kolofon qismida esa qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib haqida ma’lumot beriladi:

تمت ١٣٣٨ کاتب ملا کريم بيرکان يوان ابن رحمان بيرکان خوارزمي

ya’ni, kotib Mulla Karimbergan Devon ibn Rahmonbergan Xorazmiy ekanligi qayd etilgan.

7086 raqamli qo‘lyozma bir necha devonlarni o‘z ichiga olgan bayoz xususiyatidagi manbadir. Muqovaning yuqori qismiga yopishtirilgan qog‘ozda

“دیوان نیازي، دیوان یوسف، دیوان حبیب، دیوان عنایت” — “Devoni Niyoziy, Devoni Yusuf, Devoni Habib, Devoni Inoyat” nomlari qayd etilgan.

Bayoz 225 varaqdan iborat. Matn nasta’liq xatida qora siyoh bilan, sarlavhalar esa qizil siyoh bilan yozilgan. Yozuvlar bir xil emas, ayrim qismlar bir necha xattotga tegishli. Hoshiya qismlarida ham she’rlar uchraydi.

Habib devoni mazkur qo‘lyozmaning 141a varag‘idan boshlanadi. U ham 946 raqamli nusxadagi kabi “Zehi qudratnamolig‘...” g‘azali bilan boshlanadi. Biroq bu nusxada g‘azallar raqamlanmagan.

7086 raqamli qo‘lyozmada I.K. Frenkel nomi tushirilgan muhr ham mavjud. Mazkur muhr qo‘lyozmaning bir davrda I.K. Frenkelning shaxsiy fondi yoki ilmiy kutubxonasi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu holatni qo‘lyozmaning kelib chiqish tarixini aniqlashga doir qo‘shimcha manbalar asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

1142 raqamli qo‘lyozma ham majmua xarakteriga ega. Muqovasi qattiq kartondan tayyorlangan, ustida uchta tillarang rombsimon muhr mavjud. Muhrlardan birida Muhammad Rahimxon Feruzning ismi qayd etilgan. Matn fabrika qog‘oziga qora siyohda, sarlavhalar qizil siyohda bitilgan. Yozuv nasta’liq xatida bo‘lib, bir necha xattot qo‘liga mansub.

Qo‘lyozmaning 1a varag‘ida “Devoni Xodim”, “Devoni Devoniy”, “Devoni Xarob”, “Devoni Habib” nomlari uchraydi. Habib devoni 190b varag‘idan boshlanadi. Undagi birinchi g‘azal ham:

زهي قدرت نمالیغ قیلدینک عالم غه عدد پیدا

misrasi bilan boshlanadi. G‘azallar raqamlanmagan, hoshiyalarda ham qo‘shimcha she’rlar mavjud.

G‘azallar soni jihatidan 946 raqamli nusxa eng to‘liq nusxa hisoblanadi. Unda 192 ta g‘azal mavjud bo‘lib, 1142 raqamli nusxada 182 ta, 7086 raqamli nusxada esa 144 ta g‘azal qayd etilgan.

Muxammaslar soni 946 va 1142 raqamli nusxalarda 20 tadan, 7086 raqamli nusxada 12 tani tashkil qiladi. Musaddaslar soni 946 va 1142 nusxalarda 5 tadan bo‘lsa, 7086 nusxasida 2 ta. Qasidalar esa tegishli ravishda 5, 2 va 4 tani tashkil etadi.

Bu farqlar qo‘lyozmalarning turli davr va sharoitlarda shakllanganligini, shuningdek, ularning har biri Habib ijodiy merosining ma’lum qismini saqlaganligini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozmalarning qiyosiy-matniy xususiyatlari

“Devoni Habib”ning 946, 7086 va 1142 raqamli qo‘lyozmalarini o‘zaro qiyoslash jarayonida turli darajadagi matniy tafovutlar aniqlandi. Ularni kompozitsion, imloviy va leksik farqlar sifatida tasniflash mumkin.

Avvalo, devonning birinchi g‘azali uchala nusxada ham bir xil bayt bilan boshlanishi diqqatga sazovor. Biroq keyingi baytlarda ayrim so‘zlarning turlicha berilgani kuzatiladi. Masalan, birinchi g‘azaldagi:

ترنم

so‘zi 7086 raqamli nusxada:

فغان

shaklida keltirilgan.

Bu o‘zgarish kotibning so‘z tanlashidagi farq yoki matnni ongli ravishda o‘zgartirish natijasi bo‘lishi mumkin.

4-raqamli g‘azalda:

عدم صحراسي دين ادم غه قيلدينک سفربيدا جهان ايوانيدا قيلماقغه صيغنکدين اثر بيدا

misralari keltiriladi. Undagi:

صيغنکدين

so‘zi 1142 raqamli nusxada:

صنعتينکدين

shaklida uchraydi.

Bu kabi variantlar qo‘lyozmalarni o‘zaro qiyoslashda so‘zning grafik ko‘rinishi bilan bir qatorda uning semantik vazifasini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

6-raqamli g‘azalda:

تا قدرتينك اثاري جهان دا جمن ارا

misrasi 7086 raqamli nusxada “اثاري” so‘zisiz berilgan. Ya’ni matnning bir qismi tushirib qoldirilgan. Mazkur g‘azalning hoshiyaga yozilgani ham e’tiborga molik. Bu hol hoshiyadagi matnlarning keyinchalik qo‘shilganligi haqidagi fikrni kuchaytiradi.

7-raqamli g‘azalda ham ayrim farqlar kuzatiladi. Masalan:

بولسون درود بيحد انگاكيم جهان ارا اسمى محمد ايردى آنينک وصفى مصطفى

baytida 7086 raqamli nusxada “ايردى” so‘zi “ايرميش” shakliga o‘zgargan.

Keyingi baytda:

تنكريحبيب اتيب بريبان قوميدا مقام ايكي جهان ايليكا أني قيلدي پيشوا

misralari keltirilib, “ايليكا” so‘zidagi qo‘shimcha 7086 raqamli nusxada alohida yozilgan.

8-raqamli g‘azalda:

يا رب اولديم دهر ارا اول لعل خندادين جدا بولدى كوب افرده حبيبيم اويله كيم جاندين جدا

misralari uchraydi. 7086 raqamli nusxada “اولديم” so‘zi “اولدوم” shaklida berilgan. Bundan tashqari, mazkur nusxada ikkinchi bayt tushirib qoldirilib, uchinchi baytga o‘tilgan.

11-raqamli g‘azalda:

اول آي مهرينى اسراريديم نهان دا كونكول افشا قيلور آهُ فغان دا

baytining ikkinchi misrasidagi “آهُ فغان” birikmasi 1142 raqamli nusxada “ آه و فغان” tarzida berilgan.

Ko‘rinadiki, barcha matniy o‘zgarishlarni bir xil hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Ularning ayrimlari oddiy imloviy farq bo‘lsa, ba’zilari so‘z almashishi, yana ayrimlari esa bayt yoki misraning tushib qolishi bilan bog‘liq.

Matniy tafovutlar muxammas va musaddaslarda ham uchraydi. Birinchi muxammasning:

كيل ايساقي آليب مي ارغواني بيرله جام جم مغني نغمه آغاز ايت توزوب سازينک ني

misralarida 7086 raqamli qo‘lyozmada “ايساقي” birikmasi ajratib yozilgan.

946 raqamli nusxada muxammaslar raqamlangan bo‘lsa, 7086 raqamli nusxada ular “Muxammasi Habib” sarlavhasi ostida berilgan. Demak, matnning shakllanishi va tashkil etilishida kotibning individual uslubi ham muhim rol o‘ynagan.

Musaddaslarda ham shunga o‘xshash holat mavjud. 946 raqamli nusxada musaddaslar raqamlangan. 7086 raqamli qo‘lyozmadagi ikki musaddas esa ulama varaqlarda yirik nasta’liq yozuvida keltirilgan. Mazkur varaqlarda I.K. Frenkel muhrining mavjudligi ham qo‘lyozmaning keyingi taqdirini o‘rganish uchun muhim dalildir.

1142 raqamli nusxada musaddaslar “Musaddasi Habib” sarlavhasi ostida ketma-ket joylashtirilgan.

Masalan, birinchi musaddas:

ديلدار كيلدي بير كيچه ايلاب ساغلار هر يان طرف دا توتديم انكا شب چراغلار

misralari bilan boshlanadi.

7086 raqamli nusxada “بير كيچه” birikmasi “هر كيچه” shaklida keladi. Ikkinchi misradagi “شب” so‘zi esa tushirib qoldirilgan. Shuningdek, ayrim so‘zlardagi “لار” qo‘shimchasi alohida yozilgan.

Mazkur tafovutlar qo‘lyozma matnining nafaqat mazmuniy, balki grafik va morfologik jihatdan ham o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi.

Qasida va Navro‘znomalarning qo‘lyozmalardagi joylashuvi ham bir xil emas. 946 raqamli nusxada birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qasidalar “Qasidai bahoriyya Habib” nomi ostida berilgan.

7086 raqamli nusxada esa qasidalardan oldin bir Navro‘znoma keltirilgan. Shundan so‘ng “Qasida” va “Qasidai bahoriyya” sarlavhalari ostida qasidalar joylashtirilgan.

1142 raqamli nusxada to‘rtta qasida “Qasidai bahoriyya Habib” sarlavhasi ostida berilgan bo‘lib, qasidalardan keyin Navro‘znoma keltiriladi.

Demak, bir xil asarlar turli nusxalarda turlicha tartibda joylashtirilgan. Bu hol devonning ko‘chirilishi jarayonida kotiblar tomonidan matn kompozitsiyasiga muayyan darajada aralashilganligini ko‘rsatadi.

7086 va 1142 raqamli nusxalarning muhim xususiyatlaridan biri hoshiyalarda qo‘shimcha she’rlarning mavjudligidir. Ayrim g‘azallar asosiy matn tarkibida emas, balki hoshiyada yozilgan.

7086 raqamli nusxada uchinchi g‘azal hoshiyaga qiya shaklda yozilgan. Mazkur g‘azalning matni asosiy qismdagi she’rlar bilan mos keladi. 4- va 5-raqamli g‘azallarning ham hoshiyaga yozilgan variantlari mavjud.

Bundan tashqari, ayrim o‘rinlarda qator tushib qolishi, baytlarning o‘rin almashishi yoki she’rlarning boshqa xattot tomonidan yozilishi kuzatiladi. Bu hol qo‘lyozma bir martalik ko‘chirish jarayonida emas, balki bir necha bosqichda shakllangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

1142 raqamli nusxada ham hoshiyadagi she’rlar mavjud. Muxammaslar sarlavhasida Habibning boshqa ijodkorlarning g‘azallariga bog‘lab yozgan taxmislari qayd etilgan. Masalan, “Muxammasi Habib, bar g‘azali Navoiy”, “Muxammasi Habib, bar g‘azali Munis”, “Muxammasi Habib, bar g‘azali Feruzshohiy”, “Muxammasi Habib, bar g‘azali Xolis” kabi qaydlar mavjud.

Bu ma’lumotlar Habibning adabiy aloqalari, taxmis an’anasi va boshqa shoirlar ijodidan foydalanish masalalarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Habib ijodiy merosini o‘rganishda devon nusxalari bilan bir qatorda bayozlarning ham alohida o‘rni mavjud. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan 582 raqamli bayoz shunday manbalardan biridir.

Mazkur bayoz Xiva xoni Muhammad Rahimxon ko‘rsatmasiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, 1326/1908-yilda Xiva shahrida tartibga keltirilgan. Tuzuvchisi Xoja Maxdum ibn Qubodxoja eshon Marhumiydir.

Bayoz 248 ta g‘azalni o‘z ichiga oladi. Unda Avaz, Xokiy, Habib, Rog‘ib, Nadimiy, Chokar, G‘oziy, Oqil, Mutrib, G‘ulomiy, Tabibiy va boshqa shoirlarning she’rlari jamlangan.

E’tiborga molik jihati shundaki, mazkur bayozda Habibning o‘ndan ortiq g‘azali mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari 946 raqamli “Devoni Habib” tarkibida uchramaydi. Bu hol Habibning bizgacha yetib kelgan devon nusxalari uning barcha she’rlarini qamrab olmaganligini ko‘rsatadi.

Shu sababli Habib ijodining to‘liq ilmiy korpusini yaratishda bayoz va majmualarni ham tadqiqot doirasiga kiritish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond. № 946. “Devoni Habib” qo‘lyozmasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond. № 7086. Bayoz tarkibidagi “Devoni Habib” qo‘lyozmasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond. № 1142. Bayoz tarkibidagi “Devoni Habib” qo‘lyozmasi.
4. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. Qo‘lyozmalar fondi. № 582. Bayoz.